

## Innovatsion yangi metodlar

Shahlo Eshmurodova

shahloeshmurodova@gmail.com

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

**Annotatsiya:** Ma’lumki, dars jarayonida yangi metodlardan foydalanib dars o‘tilsa, dars qiziqarliroq bo‘ladi. Ushbu maqolada innovatsion yangi metodlar haqida ma’lumot berilgan va ularni dars jarayonida tashkil etilish sabablari.

**Kalit so‘zlar:** Prezident fikrlari, innovatsiya, “Zehn matni” usuli, “She’rni tikla” usuli, “Grafik test” o‘yin texnologiyasi, “Ma’lumot ayt” metodi, “Begona so‘z” usuli

## Innovative new methods

Shahlo Eshmurodova

shahloeshmurodova@gmail.com

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after  
Alisher Navoi

**Abstract:** It is known that the lesson will be more interesting if new methods are used during the lesson. This article provides information about innovative new methods and the reasons for their organization in the course of the lesson.

**Keywords:** President’s thoughts, innovation, “Text of the mind” method, “Restore the poem” method, “Graphic test” game technology, “Tell information” method, “Stranger word” method

Har bir davlatning ertangi kuni va kelajagi albatta, fuqarolarning intellektual salohiyatiga, ma’daniyatiga, bунyodkorligiga va ta’lim jarayoniga qaratilgan bo‘ladi. Qachonki, maktablarimizda eski ta’lim-tarbiya berish metodlaridan foydalanishni yo‘qotmas ekanmiz, keljakda farzandlarimiz hech qanday yutuqlarga erishmaydilar. Maktablarda har bir fandan dars o‘tilyotganda turli xil innovatsion yangi metodlardan foydalanib dars o‘tilsa, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi yuqori darajada bo‘ladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Innovatsiya-bu keljak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak.”

Innovatsiya so‘zi lotinchcha “novatio” so‘zidan olingan bo‘lib, “yangilanish yoki “o‘zgarish” degan ma’noni, “in” qo‘srimchasi esa lotinchadan “yo‘nalishida” deb tarjima qilinadi. Agar bu so‘zni yaxlit holatda tarjima qilsak - “o‘zgarishlar

yo‘nalishida” deb izohlanishi mumkin. Birinchi bo‘lib innovatsion tushunchasi XX asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo bo‘lgan.

Innovatsion yangi metodlarga misollar:

1. “Zehn matni” usuli. Bu metoddan asosan darslikda berilgan matn bilan o‘quvchilar tanishib bo‘lgach zehnni sinash uchun, yoki uyga vazifa qilib berilgan matnni mustahkamlash maqsadida qo‘llaniladi. Buning uchun o‘quvchilarga ustozlari matn yozilgan qog‘ozni tarqatishadi. Matn ichidagi ayrim so‘z yoki raqamlar o‘zgartirib qo‘yiladi. O‘quvchilar esa o‘sha xatolikni topib, matn tagida berilgan jadvalga joylab chiqishadi.

Bu metodning natijaviyligi:

Ziyaraklikni oshiradi;

Mustaqil fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiradi;

Qiyosiy o‘rganish rivojlanadi;

So‘z ajratish malakasi rivojlanadi.

2. “She’rni tikla” usuli metodida ham adabiyot kitobdagi biron bir she’r asos qilib olinadi. O‘quvchilar berilgan vaqt ichida she’rni qayta tiklashi hamda o‘z ziyrakliklarini namoyish etishlari shart. Buning uchun sinfdagi o‘quvchilarni 3 guruhga bo‘lib olamiz. Guruhlarga esa bir xil she’r matni ichidan har bir satri ajratib kesib olingan holda berib chiqiladi. O‘quvchilardan talab qilinadigan narsa misralarning o‘rnini to‘g‘ri tanlashi kerak bo‘ladi.

Bu metod natijasida o‘quvchilarning:

Ziyarakligi sinaladi;

Bir eshitgandan eslab qolish ko‘nikmasi sinovdan o‘tkaziladi;

She’rni mantiqan davomini topish malakasi rivojlantiriladi;

She’r yozish uslubini o‘rganishadi.

3. “Grafik test” o‘yin texnologiyasi metodida har bir o‘quvchiga maxsus jadvalli varaqlar tarqatiladi. O‘quvchilar esa oldindan o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan savollarni o‘qiydi va har bir savolga javob variantlaridan mosini tanlab shu katakchani bo‘yab chiqadi. Jarayon so‘ngida esa hosil bo‘lgan shakl namunaviy shakl bilan solishtiriladi.

4. “Ma’lumot ayt” deb nomlangan metodimizda o‘qituvchi tomonidan biron bir adabiyot darslikda berilgan barcha shoir va yozuvchilarimizni rasmini doskaga orqa tarafini qilib magnit bilan yopishtirilib chiqiladi. Har bir o‘quvchi doskaga chiqqanda xohlagan rasmini tortib u qaysi yozuvchi yoki shoir ekanligini topadi. Keyin o‘sha adib haqida bilgan ma’lumotlarini aytadi. Kim ko‘p ma’lumot aytsa o‘sha o‘quvchi g‘olib bo‘ladi va taqdirlanadi.

Bu metodimizning natijaviyligi:

Bolada ma’lumotlarni eslab qolish ko‘nikmasini shakllantiradi;

Yozuvchi va shoirlarni tanib qolish malakasini rivojlantiradi.

5. “Begona so‘z” usuli metodida “Ona tili kitobi” dan berilgan biror bir she’r yoki matn asos qilib olinadi. O‘quvchilar esa berilgan vaqt mobaynida jadvalda berilgan 5 ta so‘zdan matn yoki she’rda uchramaydigan so‘z yoki so‘zlarni topishi kerak bo‘ladi.

Bu metodning natijasida:

O‘quvchilardagi mantiqiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish;  
Matnni tahlil qila olish malakasini sinash;  
Mustaqil fikrlay olish qobiliyatini shakllantirish;  
Qiyosiy o‘rganishga o‘rgatish yotadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, ayrim o‘quvchilarda nazariy ma’lumotlarni yetarlicha o‘zlashtira olmaslik holatlari kuzatiladi. Bunday vaqlarda o‘qituvchi dars jarayonida innovatsion metodikalar orqali mavzuni tushuntirsa, o‘quvchining mavzuni tushunishi va o‘zlashtirishi oson bo‘ladi. Undan tashqari o‘qituvchining ko‘p qirrali faoliyatini ochib berishda, balki o‘quv jarayonini jadallashtirish, bilim olish amaliyotini faollashtirish, o‘quvchilarning ishtiyoqini kuchaytirish va jadallashtirishga samarali xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun har bir pedagog o‘z ustida ko‘proq ishlashi talab etiladi. Eski qoida yodlatish va ko‘chirtirish metodlaridan voz kechishi kerak. Darsini qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlashi kerak. Har bir daqiqadan unumli foydalanib, o‘quvchilarning bilim olishiga o‘z hissasini qo‘sishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Prezident Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.  
<https://www.xabar.uz/siyosat/prezident-shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlisgamurojaatnomasi>
2. Инновации: теория, механизм, государственное регулирование: Учебн. пособие /Под ред. Ю.В. Яковца. - М.: РАГС, 2000.
3. Инновации: теория, механизм, государственное регулирование: Учебн. пособие /Под ред. Ю.В. Яковца. - М.: РАГС, 2000.
4. Мамадов Н.С. Умумий таълим мактабланин инновацион бошкариш. Педагогика фанлари номзоди. ... дисс. - Т., 2009. - Б.17.